MAKTABGACHA TA'LIMDA XALQ OG'ZAKI IJODINI O'RGATISHNING INTEGRATSIYALASH METODI

Buxoro davlat

Pedagogika instituti maktabgacha ta'lim

Kafedrasi o'qituvchisi Bahronova Gulnoza

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda xalq og'zaki ijodini o'rgatishning integratsiyalash metodilari haqida fikr bildirilgan va hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilmoqda.*

Kalit so'zlar: *Integratsiya, maktab, turlar, usullar, uslublar, o'qish savodxonligi, tabiiy fan, Tasviriy san'at, integrativ, kompleks.*

Integratsiya kursi - o'quv fanlaridan biri bo'lib, fanlararo bilimlar (integrativ bilimlar)ni chuqurlashtirish va oshirish, ulami shakllantirisb uchun o'rganiladi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya obyektlari asosida tuzilgan. Integratsiya krurslarining sinflarga bo'linishini turli asoslarda tahlil qilish mumkin:

• maqsad va muammolar asosida;

• maktab tabiiy-ilmiy tizimidagi vazifaIari asosida;

• qo'shiluvchi fan tarmoqlari asosida;

• integratsiya usullari va yo'llari asosida;

• o'quv rejasidagi sinf asosida;

• kursni o'rganishga sartlangan vaqt asosida;

• o'quvchilar uchun qiyinlik darajasi asosida va h.k.

Shuni e'tiborga olamizki, odatda, o'z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni yechish masalasini qo'yishadi, shu sababli kurslar ko'p maqsadli, turli vazifali bo'ladi.

Ko'p miqdordagi dasturlar va ularni tatbiq etishga urinishlari ko'rib chiqib, biz bu kurslar qurilishining asosiy yo'nalishlarini ajratishimiz va ulami mohiyatiga qarab, sinflarga bo'lishimiz mumkin. Ularni yana universa1 yoki bir necha asosiy tizim kurslarini almashtiruvchi umumiy, deb ham atash mumkin. Masalan , o'qish savodxonligi, tabiiy fan, Tasviriy san'at darslarini bitta umumiy darsga birlashtirish.

Odatda, bunday kurslaming mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma'lum tizimga keltirishadi va o‘z kurslarini integrativ yoki kompleks (umurniy), deb ataydilar. Ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich ta'lim tizimidagi tabiiy fanlar 5 materiallarini berishda to‘g‘ri ketma-ketlikka faqat darslar tuzilishini saqlab qolibgina erishish mumkin. Ba’zi e’tiborli olimlar ta'kidlaydilarki, bu an'anaviy maktablarda ham tabiiy fanlami ketma-ket o‘rganish yo‘li bilan ham hal qilinmoqda. Bir qator olimlar boshlang‘ich ta'limga ham darslarga ajratib o‘qitish an'analari tarqalgan, deb hisoblashadi. Tabiiy fanlarni o‘qitishning tizim bo‘yicha davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ko‘pgina mualliflar gumanitar sinflar uchun umumlashtirilgan kurslar (darslar) taklif qilishadi. Bularga umumiy tushunchalar beruvchi, bolalarda tabiiy fanlarni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko‘rinishda hikoya qiluvchi boshlang‘ich tabiiy fanlar kurslari (masalan, boshlang‘ich sinflardagi «Tabiiy») kiradi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy ta’limning poydevorining qo‘yadigan boshlang‘ich maktabdagi ko‘p tushunchalar tabiiy fan, rus tili, musiqa, tasviriy san’at va boshqalar uchun umumiydir. Hozirgi kunda bir qator predmetlari uchun umumiy bo‘lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o‘rnatish psixologik va metodik asosiy bo‘lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish lozim.Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o‘rgatilishi va zarur o‘qitishning vositalari bilan ta’minlanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voris nashriyot", 2013.

2.R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi", Toshkent "Ilm ziyo", 2009.

3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetic ijodi. –Toshkent,” O‘qituvchi”, 1990.

4. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. –Toshkent: ”Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.